

MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA OG'IR NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI KORREKSION-PEDAGOGIK RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Sultonova Zarina Uchqun qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21867974>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarning emotsional intellektini korreksion-pedagogik rivojlantirish masalalari yoritilgan. Eshitish analizatoridagi og'ir nuqson bolaning atrofdagilar bilan emotsional muloqotga kirishishi, boshqa insonlarning emotsional holatini anglash, o'z kechinmalarini ifodalash hamda ijtimoiy vaziyatlarda adekvat xulq-atvorni shakllantirishiga muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Maqolada emotsional intellektning asosiy tarkibiy qismlari, uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, korreksion ish shakllari, didaktik va rolli o'yinlardan foydalanish imkoniyatlari hamda pedagog va ota-onalar hamkorligining ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalar, maktabgacha yosh, emotsional intellekt, emotsional rivojlanish, emotsiyalarni anglash, emotsiyalarni ifodalash, empatiya, o'zini boshqarish, ijtimoiy-emotsional kompetensiya, korreksiya.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы коррекционно-педагогического развития эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста с тяжёлыми нарушениями слуха. Тяжёлое нарушение слухового анализатора создаёт определённые трудности в эмоциональном взаимодействии ребёнка с окружающими, понимании эмоционального состояния других людей, выражении собственных переживаний, а также

формировании адекватного поведения в социальных ситуациях. В статье раскрываются основные структурные компоненты эмоционального интеллекта, педагогические условия его развития, формы коррекционной работы, возможности использования дидактических и ролевых игр, а также значение сотрудничества педагогов и родителей. Ключевые слова: дети с тяжёлыми нарушениями слуха, дошкольный возраст, эмоциональный интеллект, эмоциональное развитие, понимание эмоций, выражение эмоций, эмпатия, саморегуляция, социально-эмоциональная компетентность, коррекционно-педагогическое развитие.

Ключевые слова: дети с тяжёлыми нарушениями слуха, дошкольный возраст, эмоциональный интеллект, эмоциональное развитие, понимание эмоций, выражение эмоций, эмпатия, саморегуляция, социально-эмоциональная компетентность, коррекция.

Abstract: This article addresses the issues of corrective and pedagogical development of emotional intelligence in preschool children with severe hearing impairments. Severe impairment of the auditory analyzer creates certain difficulties for children in engaging in emotional communication with others, understanding the emotional states of other people, expressing their own feelings and experiences, and developing appropriate behavior in social situations. The article examines the main structural components of emotional intelligence, the pedagogical conditions for its development, forms of corrective intervention, the potential of using didactic and role-playing games, as well as the importance of collaboration between teachers and parents. Keywords: children with severe hearing impairment, preschool age, emotional intelligence, emotional development, understanding emotions, emotional expression, empathy, self-regulation, social-emotional competence, correctional and pedagogical development.

Keywords: children with severe hearing impairments, preschool age, emotional intelligence, emotional development, understanding emotions, expression of emotions, empathy, self-regulation, social-emotional competence, correction.

KIRISH

Bugungi kunda maxsus pedagogika va maktabgacha ta'lim tizimida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning nafaqat bilish faoliyati, balki ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlash ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida emotsional intellektni shakllantirish muhim pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yosh davri bolaning emotsional sohasi jadal rivojlanadigan, o'z kechinmalarini anglash, ularni ifodalash, atrofdagilarning hissiy holatini tushunish va ijtimoiy munosabatlarning dastlabki shakllari tarkib topadigan muhim rivojlanish bosqichidir. Mazkur davrda bola quvonch, xafa bo'lish, qo'rquv, hayrat, g'azab kabi asosiy emotsional holatlarni farqlashni, ularni yuz ifodasi, imo-ishora, harakat va nutqiy vositalar yordamida ifodalashni o'rganadi.

Eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarda esa ushbu jarayon o'ziga xos sharoitda kechadi. Bola atrofidagi kattalar va tengdoshlarining og'zaki nutqini to'liq eshita olmagani sababli ularning ovoz ohangi, intonatsiyasi va emotsional mazmunini tabiiy ravishda qabul qilish imkoniyati cheklanadi. Bu holat bolaning emotsional vaziyatlarni anglashiga, o'z his-tuyg'ularini verbal ifodalashiga hamda ijtimoiy muloqotda adekvat javob qaytarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish maxsus tashkil etilgan korreksion-pedagogik jarayonni talab etadi. Bunda bolaning saqlangan analizatorlaridan, ayniqsa ko'ruv va taktil idrok imkoniyatlaridan samarali foydalanish, vizual materiallar, mimika, imo-ishora, daktil nutq, predmetli-amaliy faoliyat, o'yin va turli ijtimoiy vaziyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Emotsional intellekt tushunchasi va uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishidagi ahamiyati

Emotsional intellekt shaxsning o'z emotsiyalarini anglash va boshqarish, boshqa insonlarning emotsional holatini tushunish, ularga mos ravishda munosabat

bildirish hamda ijtimoiy munosabatlarda samarali ishtirok etish imkonini beruvchi qobiliyatlar majmuini anglatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektning shakllanishi bir necha o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar asosida amalga oshiriladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

O'z emotsional holatini anglash – bola o'zida yuzaga kelayotgan quvonch, xafalik, qo'rquv, g'azab, hayrat kabi holatlarni farqlay olishi.

Emotsiyalarni farqlash va nomlash – turli emotsional holatlarni bir-biridan ajratish va ularni tegishli belgilar orqali ifodalash.

Emotsiyalarni ifodalash – yuz ifodasi, imo-ishora, tana harakati, daktil yoki og'zaki nutq orqali o'z hissiyotlarini boshqalarga yetkazish.

Boshqalarning emotsiyalarini anglash – tengdoshlar va kattalarning mimikasi, xatti-harakati va vaziyatidan kelib chiqib ularning hissiy holatini tushunish.

Empatiya – boshqa insonning kechinmalariga befarq bo'lmaslik, uning holatini tushunishga va yordam berishga intilish.

Emotsional o'zini boshqarish – g'azab, qo'rquv, xafalik kabi kuchli emotsiyalar yuzaga kelganda o'z xatti-harakatlarini boshqara olish.

Ijtimoiy-emotsional muloqot – tengdoshlar va kattalar bilan hamkorlik qilish, nizoli vaziyatlarda mos xulq-atvorni namoyon etish.

Mazkur tarkibiy qismlarning shakllanishi bolaning keyingi ijtimoiylashuvi, maktab ta'limiga tayyorgarligi va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim zamin yaratadi.

Eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarning emotsional rivojlanishida asosiy muammolardan biri emotsional axborotni tabiiy ravishda qabul qilish imkoniyatining cheklanganligi bilan bog'liq. Eshituvchi bola kundalik muloqot jarayonida ovoz ohangi, intonatsiya, pauza va boshqa fonetik vositalar orqali kattalarning emotsional holati haqida ma'lumot oladi. Eshitishida og'ir nuqsoni

bo'lgan bola esa bunday axborotni asosan ko'ruv va boshqa saqlangan idrok kanallari orqali qabul qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, korreksion-pedagogik jarayonda emotsional holatlarni vizual tarzda namoyish qilish muhimdir. Masalan, pedagog quvonch, xafalik, qo'rquv yoki g'azabni yuz ifodasi, tana holati va imo-ishoralar orqali ko'rsatishi, bola esa ushbu holatni aniqlashi va tegishli belgi bilan ifodalashi mumkin.

Emotsional intellektni rivojlantirishda "Emotsiyani tanish – tushunish – ifodalash – boshqarish" ketma-ketligiga amal qilish maqsadga muvofiq. Dastlab bolaga asosiy emotsiyalarni farqlash o'rgatiladi. Keyingi bosqichda emotsiyaning sababini tushunish, o'zining va boshqa insonlarning holatini aniqlash, undan so'ng esa tegishli xatti-harakatni tanlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Bunda bolalarning yosh va individual xususiyatlari, eshitish nuqsonining darajasi, nutqiy rivojlanish holati, kommunikativ imkoniyatlari va oilaviy sharoiti hisobga olinishi zarur.

Emotsional intellektni rivojlantirishda korreksion-pedagogik ish yo'nalishlari Maktabgacha yoshdagi eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish bo'yicha korreksion ishlarni quyidagi asosiy yo'nalishlarda tashkil etish mumkin:

1. Emotsiyalar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

Bolalarga quvonch, xafalik, qo'rquv, g'azab, hayrat kabi asosiy emotsiyalarni tanish va farqlash o'rgatiladi. Bunda rasmlar, emotsional kartochkalar, oynadan foydalanish, pedagogning mimikasi va real hayotiy vaziyatlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

2. O'z emotsiyalarini anglash va ifodalash.

Bola "Men xursandman", "Men xafaman", "Men qo'rquyapman", "Men jahlim chiqdi" kabi mazmunlarni tushunishi va imkoniyatiga mos kommunikativ vosita orqali ifodalashi lozim. Bunda og'zaki nutq bilan bir qatorda daktil nutq, imo-ishora va vizual belgilar ham qo'llanilishi mumkin.

3. Boshqalarning emotsional holatini tushunish.

Pedagog turli vaziyatlarni tasvirlovchi rasmlar yoki sahna ko'rinishlari orqali "Bola nima uchun xafa?", "Qizcha nima uchun xursand?", "Unga qanday yordam berish mumkin?" kabi topshiriqlarni tashkil etadi.

4. Empatik munosabatlarni shakllantirish.

Bolalarda boshqa insonning holatiga e'tibor qaratish, yordam berish, tasalli berish, birgalikda quvonish kabi ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar shakllantiriladi.

5. Emotsional o'zini boshqarishni rivojlantirish.

Bolaga salbiy emotsiyalarni konstruktiv usulda boshqarish, kutish, navbatga rioya qilish, nizoli vaziyatlarda agressiv harakatlardan tiyilish, kattalardan yordam so'rash kabi ko'nikmalar o'rgatiladi.

Korreksion ish shakllari

Eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional intellektini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

Individual korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar.

Kichik guruhlarda tashkil etiladigan mashg'ulotlar.

Didaktik va rivojlantiruvchi o'yinlar.

Rolli va dramatizatsion o'yinlar.

Predmet-amaliy faoliyat.

Rasm chizish va ijodiy faoliyat.

Musiqiy-ritmik va harakatli mashg'ulotlar.

Sayr, kuzatish va tabiiy vaziyatlarda emotsional muloqotni tashkil etish.

Bayramlar va turli tadbirlarga tayyorgarlik.

Ota-onalar bilan hamkorlikdagi mashg'ulotlar.

Ayniqsa, didaktik o'yinlar emotsional intellektni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Masalan, "Emotsiyani top", "Qaysi holat?", "Mening kayfiyatim", "Kim xafa?", "Do'stingga yordam ber", "Emotsiyani ko'rsat" kabi o'yinlar orqali bolalarning emotsional lug'ati va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

O'yin texnologiyalaridan foydalanish

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin yetakchi faoliyat hisoblanadi. Shu sababli emotsional intellektni rivojlantirish jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikka ega.

Masalan, "Emotsional oyna" o'yinida pedagog muayyan emotsiyani yuz ifodasi orqali namoyish etadi. Bola oynaga qarab xuddi shu emotsiyani takrorlaydi. Bu mashq bolaning o'z emotsiyasini mimik jihatdan ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

"Rasmga qarab top" o'yinida turli emotsional vaziyatlar aks ettirilgan rasmlar beriladi. Bola tasvirdagi qahramonning holatini aniqlaydi.

"Nima qilish kerak?" o'yinida esa muammoli ijtimoiy vaziyatlar beriladi. Masalan, bir bola o'yinchoqni olib qo'ygan, boshqa bola esa xafa bo'lgan. Boladan ushbu vaziyatda qanday yo'l tutish mumkinligi so'raladi.

Bunday o'yinlar orqali bola nafaqat emotsiyani aniqlash, balki uning sababini tushunish va vaziyatga mos ijtimoiy xatti-harakatni tanlashni ham o'rganadi.

Individual korreksion mashg'ulotlarning ahamiyati

Eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish imkoniyatlari bir xil emas. Shu sababli emotsional intellektni rivojlantirishda individual yondashuv muhim pedagogik shart hisoblanadi.

Individual mashg'ulotlarda bolaning emotsional rivojlanish darajasi aniqlanib, uning ehtiyojlariga mos korreksion topshiriqlar tanlanadi. Masalan, ayrim bolalarda emotsiyalarni farqlash qiyin bo'lsa, boshqalarida o'z hissiyotlarini ifodalash yoki salbiy emotsiyalarni boshqarish bilan bog'liq qiyinchiliklar ustun bo'lishi mumkin.

Shunga ko'ra, individual mashg'ulotlarda oddiydan murakkabga, konkret holatdan abstrakt vaziyatga, tanish emotsiyadan murakkab ijtimoiy-emotsional vaziyatlarga bosqichma-bosqich o'tish tamoyiliga amal qilish lozim.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi

Eshitishda og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish faqat ta'lim tashkilotidagi mashg'ulotlar bilan cheklanmasligi kerak. Ushbu jarayon oilada ham izchil davom ettirilishi zarur.

Ota-onalarga bolaning emotsiyalarini nomlash, uning his-tuyg'ularini inkor etmaslik, emotsional vaziyatlarni tushuntirish, bola bilan yuzma-yuz muloqot qilish, mimika va vizual vositalardan foydalanish, turli ijtimoiy vaziyatlarni birgalikda muhokama qilish bo'yicha tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq.

Pedagog va ota-onalar o'rtasidagi muntazam hamkorlik bolaning emotsional rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Uyda va maktabgacha ta'lim tashkilotida bir xil pedagogik talablarning qo'llanilishi esa bolaning o'zlashtirgan ko'nikmalarini turli vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi eshitishda og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish ularning umumiy psixik va shaxsiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Eshitish imkoniyatining cheklanganligi emotsional axborotni tabiiy qabul qilish va ijtimoiy muloqot jarayonida undan foydalanishga muayyan qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu sababli ushbu toifadagi bolalar bilan maxsus tashkil etilgan korreksion-pedagogik ishlarni olib borish zarur.

Emotsional intellektni rivojlantirish jarayonida ko'rgazmali, vizual, amaliy, o'yin va interfaol metodlardan foydalanish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, emotsional muloqot uchun tabiiy vaziyatlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, emotsiyalarni tanish, farqlash, nomlash va ifodalashdan boshlab, boshqalarning emotsional holatini tushunish, empatiya va o'zini boshqarish ko'nikmalarigacha bosqichma-bosqich rivojlantirish samarali natija beradi.

Individual va guruhli korreksion mashg'ulotlarni didaktik, rolli va dramatizatsion o'yinlar, rasm, predmet-amaliy faoliyat, musiqiy-ritmik mashg'ulotlar hamda kundalik hayotdagi tabiiy muloqot vaziyatlari bilan

uyg'unlashtirish bolalarning emotsional-intellektual rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Shuningdek, bolaning emotsional rivojlanishida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Pedagogik ta'sirning uzluksizligi va izchilligi ta'minlangan sharoitda eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarda o'z emotsiyalarini anglash, ularni ifodalash, boshqa insonlarning his-tuyg'ularini tushunish, empatik munosabat bildirish va ijtimoiy vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini samarali shakllantirish mumkin.

Demak, maktabgacha yoshdagi eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarning emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan korreksion-pedagogik jarayon diagnostik, rivojlantiruvchi, korreksion va kommunikativ komponentlarning o'zaro uzviyligi asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv bolaning nafaqat emotsional sohasini, balki uning muloqot, ijtimoiylashuv va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Amirsaidova Sh.M. Maxsus pedagogika fani rivojlanishida Sharq mutafakkirlari g'oyalarining o'rni va roli.
2. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomillashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.
3. Матвеев В.Ф. Обучение школьников с нарушениями слуха в современных условиях // Дефектология.
4. Боскис Р.М. Развитие смысловой стороны речи у глухих и слабослышающих детей.
5. Alimxo'jayeva F.J. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik material.
6. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ.

7. Mayer J.D., Salovey P. What Is Emotional Intelligence? // Emotional Development and Emotional Intelligence: Educational Implications.
8. Изотова Е.И., Никифорова Е.В. Эмоциональная сфера ребенка: теория и практика.
9. Выготский Л.С. Основы дефектологии.
10. Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети.